




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



DURAND'S LINE: INFLUENCE OF EXTERNAL FORCES AND SECURITY PROBLEM

Sardor RAKHIMOV

Student

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Durand Line, AfPak Strategy, Greater Middle East, New Middle East, Free Balochistan, Pashtunistan, Big Game, Solomon Road, SCAP, FATA, NWFP.

Received: 20.06.23

Accepted: 22.06.23

Published: 24.06.23

Abstract: In this article, the approaches of regional and global actors, including the United States, China, India and Iran, and the various strategies put forward by them to resolve the border problem between Afghanistan and Pakistan, particularly the "Durand Line" conflict. concepts are covered in detail. The proposals of politicians, experts, local and foreign scientists as a solution to this problem are also described.

DYURAND CHIZIG‘I: TASHQI KUCHLAR TA’SIRI VA XAVFSIZLIK MUAMMOSI

Sardor RAHIMOV

Talaba

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O’zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Dyurand chizig‘i, “AfPak” strategiyasi, “Katta Yaqin Sharq”, “Yangi Yaqin Sharq”, “Ozod Balujiston”, “Pashtuniston”, “Katta o‘yin”, “Solomoncha yo‘l”, SCAP, FATA, NWFP.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg'oniston va Pokiston o'rta sidagi chegara muammosi, xususan, “Dyurand chizig‘i” mojarosini hal etish bo'yicha mintaqaviy va global aktorlar, jumladan, AQSh, Xitoy, Hindiston va Eronning yondashuvlari hamda ular tomonidan ilgari surilgan turli strategiya va konsepsiylar batasfil yoritilgan. Shuningdek, siyosatchilar, ekspertlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ushbu muammoga yechim sifatida bildirgan takliflari ham bayon etilgan.

ЛИНИЯ ДЮРАНА: ВЛИЯНИЕ ВНЕШНИХ СИЛ И ПРОБЛЕМА БЕЗОПАСНОСТИ

Сардор РАХИМОВ

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Линия Дюранда, Стратегия АфПак, Большой Ближний Восток, Новый Ближний Восток, Свободный Белуджистан, Паштунистан, Большая игра, Соломон-роуд, SCAP, FATA, NWFP.

Аннотация: В этой статье рассматриваются подходы региональных и глобальных акторов, в том числе США, Китая, Индии и Ирана, и различные стратегии, выдвигаемые ими для решения пограничной проблемы между Афганистаном и Пакистаном, в частности конфликта «линии Дюранда». подробно освещены. Также описываются предложения политиков, экспертов, местных и зарубежных ученых по решению данной проблемы.

KIRISH

“Dyurand chizig‘i” muammosi, avvalo, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi chegara muammosi sanalsa-da, tashqi kuchlar, xossatan, yirik kuch markazlarining chegara bo‘yicha pozitsiyasi hamda yondashuvini ham tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Zero, ushbu chiziq AQSh, Hindiston, Eron va Xitoy kabi davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini o‘zida aks ettiruvchi hudud hisoblanadi.

ASOSIY QISM

AQSh. AQShning Afg‘oniston va Pokiston bo‘yicha sobiq vakili Uilyam Jozef Berns Dyurand chizig‘i Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi rasmiy chegara ekanligi va AQSh bu chegarani rasman tan olganini ma’lum qilgan. J.Bernsning qo‘srimcha qilishicha, har ikki davlat ham nozik bir paytda va keskinlik kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak[1].

2001-yilda Amerika harbiy kuchlarining Afg‘onistonga kirib kelishi natijasida Washington Afg‘oniston va Pokiston chegarasiga, xususan, Dyurand chizig‘iga alohida e’tibor qarata boshladi. Qo‘srimcha Shtatlarning bir qator davlat arboblari Afg‘oniston va Pokistonni alohida hududlar sifatida emas, balki yagona makon sifatida qarash yondashuvini ilgari surdi va bu “**AfPak**” **strategiyasi** deb nomlandi. Mutaxassislar “AfPak” atamasini Barak Obama ma’muriyatining faoliyati bilan bog‘lashadi, ammo uning paydo bo‘lishi 2007-2008-yillarga borib taqaladi. Ushbu konsepsiyaning muallifi amerikalik diplomat Richard Xolbruk hisoblanadi. U Qo‘srimcha Shtatlar Prezidentining Afg‘oniston va Pokiston bo‘yicha maxsus vakili lavozimida faoliyat yuritgan. 2008-yil mart oyida R.Xolbruk Afg‘oniston va Pokistonni yagona harbiy-siyosiy maydon sifatida quyidagi sabablarga ko‘ra qabul qilish zarurligini ma’lum qildi:

- Afg'oniston-Pokiston chegarasida umumiy amaliyotlar teatri mavjudligi;
- Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi Dyurand chizig'i bilan bog'liq chegara muammosi;
- "Tolibon" Afg'oniston va Pokiston o'rtasida ochiq chegara rejimining (birinchi navbatda "qabila zonasasi") terroristik tarmoqlaridan foydalanishi[2].

AQShning ushbu hududdagi strategik rejalarida mustaqil davlatlarga tuzishga ishora qiluvchi ba'zi konsepsiylar mavjud. Jumladan, "**Yangi Yaqin Sharq**" konsepsiysi shunday strategiya sirasiga kiradi.

2006-yil iyun oyida Tel-Avivda AQSh Davlat kotibi Kondoliza Rays tomonidan ancha eskirgan va ta'sirchan "Katta Yaqin Sharq" atamasi o'rniga "Yangi Yaqin Sharq" atamasi kiritilganini jahonga e'lon qilindi (u G'arb ommaviy axborot vositalari tomonidan ushbu atamani yaratgan deb hisoblanadi).

Bu konsepsiya to'liq neokonservativ ruhda shakllantirilgan bo'lib, AQShning Yaqin Sharqdagi tashqi siyosiy strategiyasining muhim jihatlarini namoyon qiladi. Uning ahamiyatli jihatlaridan biri Boku-Tbilisi-Jayxun neft terminalining ishga tushishi bilan bir vaqtida e'tirof etilganidir. K.Raysning ma'lumot berishicha, "Yangi Yaqin Sharq" loyihasi Livandan boshlanadi.

Ekspertlar fikricha, bu tahdid AQSh-Buyuk Britaniya-Isroilning birligida ishlab chiqqan Yaqin Sharqdagi "yo'l xaritasi" hisoblanadi. Bu konsepsiya mintaqqa bo'yicha urush o'choqlari va tartibsizlik vaziyatini kuchaytirib, "ijodiy xaos" kuchlarini barpo etishga qaratiladi. "Yangi Yaqin Sharq" vositasida AQSh, Buyuk Britaniya va Isroil o'zlarining geostrategik va boshqa manfaatlariga muvofiq Yaqin Sharq xaritasini qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. "Yangi Yaqin Sharq" ning ishlab chiqilishi bilan uning xaritasi ham yuzaga keldi.

"Yangi Yaqin Sharq" geosiyosiy xaritasi amerikalik iste'fodagi polkovnik Ralf Peters tomonidan ishlab chiqilgan. Xarita R.Petersning "Hech qachon kurashni to'xtatma" ("Never Quit the Fight") nomli kitobining bir muhim qismi hisoblanib, u 2006-yilning 10-iyulida ommaga taqdim etilgan edi. Bundan tashqari, bu xarita R.Peters tomonidan AQShning qurolli kuchlari jurnalida "Qonli chegaralar: Yaqin Sharq qanday ko'rinishga ega bo'lishi lozim" (Blood Borders: How a better Middle East would look) sarlavhasi ostida ham bosib chiqarilgan[3]. Ralf Peters xaritasiga ko'ra, bugungi kundagi Yaqin Sharq mintaqasi chegaralari tarixiy, etnik, milliy jihatdan haqiqatga mos emas. Shuning uchun ham muammolar yechimi topilmayabdi. Bu esa chegaralar o'zgarishini taqozo etadi. O'zgarishlar davlatlar o'rtasidagi keskin siyosatning yuzaga kelishi, davlatlardagi ichki va konfessiyalararo qarama-qarshiliklar oqibatidagi qurolli nizolar natijasida ro'y berishi mumkin[4]. Xaritaga ko'ra yangi davlatlar: Ozod Kurdiston, Arab-shia davlati, Muqaddas Islom davlati va "Ozod Balujiston" davlatlari tashkil topadi. Jumladan, yuqorida ko'rsatilgan xaritada "Ozod Balujiston" davlati ham tashkil topishi va bu davlat Afg'oniston va Pokiston hududining kattagina qismini qamrab olishi tasvirlangan.

Amerikaning mazkur geosiyosiy konsepsiyalari o‘z-o‘zidan mintaqaga Eron va Xitoyning ta’sirini kamaytirishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Eron Islom Respublikasi. Dyurand chizig‘i Tehronning chegara bilan bog‘liq qarashlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmasa-da, ammo bilvosita ta’sir etishi mumkin. Masalan, Dyurand chizig‘i bo‘ylab etnik ixtiloflar bo‘lishi, ayniqsa, pashtunlarning “Pashtuniston” g‘oyalari, ma’lum ma’noda, Eron bilan chegarada yashaydigan balujlarning separatistik harakatlariga ham turtki berishi mumkin. Bu esa biz yuqorida qayd etgan “Ozod Balujiston” davlatini tuzish harakatlariga olib kelishi mumkin. Aniqroq izohlaganda, bu Eronning hududiy yaxlitligiga putur yetkazadi. Shu jihatdan Tehronning bu masaladagi yondashuvi Pokiston bilan o‘xhash bo‘lib, mintaqadagi har qanday separatistik harakatlarga qarshi kurash olib borishni lozim, deb hisoblaydi. Shu jihatdan Eron hududiy yaxlitligi va geosiyosiy manfaatlarini hisobga olgan holda bu masalada Pokiston bilan hamkorlik qilib keladi. Afg‘onshunos S.Bo‘ronov Eronning Pokiston bilan hamkorlik qilishidagi boshqa sabablarni ham quyidagicha izohlaydi: “Bugungi Tehron geosiyosiy qarashlarida Washington va Fors ko‘rfazi arab monarxiyalarining Afg‘onistonga ta’sirini kamaytirish yo‘lida Islomobod bilan hamkorlik qilish siyosati ustuvorlikka aylanmoqda. Buning birinchi sabablaridan biri so‘nggi yillarda Washington va Islomobod aloqalarining tez-tez o‘zgarib turishi bo‘lsa, ikkinchi sabab, Afg‘onistondan AQSh qo‘sishnari olib chiqilishi sharoitida Eronga qarshi Saudiya-Pokiston tandemidan foydalanish maqsadi Vashington uchun dolzarb ekani bilan bevosita bog‘liq”[5].

Hindiston. “Dyurand chizig‘i” masalasida Hindistonning pozitsiyasi aniq va ravshan. Yangi Dehli Dyurand chizig‘ining xalqaro chegara sifatida tan olinmasligi va ushbu chegara atrofidagi separatistik guruahlarning faollashuvidan manfaatdor. Zero, bunday harakatlar “Pashtuniston” davlatining tuzilishi va Pokistonning parchalanishiga olib keladi. Hindistonning Dyurand chizig‘i bo‘yicha yondashuvi 4 ta asosiy jihatni qamrab oladi:

- Hindiston pashtunlar yashaydigan Federal ma’muriy qabilalar hududi (FATA) va Xaybar-Paxtunxva mintaqalarida Pokiston tomonidan inson huquqlarining buzilishini keskin qoralaydi;
- Hindiston Pokistonning pashtunlar hukmronlik qilgan hududlarida joylashgan hindu va buddist tarixiy qoldiqlarini himoya qilish uchun choralar ko‘radi. Buning zaruriyati FATA va Xaybar-Paxtunxva mintaqasidagi ushbu tarixiy obidalar terroristik guruhlar tomonidan tahqirlangani va Pokiston hukumati tomonidan samarali himoya qilinmayotgani bilan bog‘liq;
- terroristik guruhlarning aksariyati Pokistonning faol ko‘magida Xaybar-Paxtunxva va FATA mintaqasida faoliyat yuritib, Afg‘onistondagi tinchlik jarayoni va xavfsizlikka tahdid solmoqda. Hindiston Afg‘oniston bilan terrorizm tahdidiga qarshi kurashish uchun birgalikda hamkorlik qilishni afzal ko‘radi;

- Hindiston “Dyurand chizig‘i” muammosini hal etish uchun Afg‘onistonning huquqiy va texnik ko‘mak ko‘rsatishga tayyor[6].

Hind rasmiylari Afg‘oniston va Pokiston chegarasida ham xuddi Bangladesh kabi alohida davlat yoki davlatlar tuzilishi uchun harbiy, diplomatik va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirib keladi. Buning o‘ziga xos sabablari mavjud. Professor Joshi Nirmala Hindistonning bu boradagi manfaatlari xususida quyidagicha yozadi: “Hindistonning manfaati Afg‘onistonni diniy ekstremizm va terrorizm markazi sifatida qabul qilmaslikdan iborat, biroq rasmiy jihatdan Hindiston “Tolibon” harakatini Pokiston bilan yaqin aloqaga kirishishi, ularning fundamentalistik kelishuvi hamda Jammu va Kashmir harbiy amaliyotlarida afg‘on yollanma askarlarining keng jalb qilinishidan tashvishlanadi”[7]. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Hindiston razvedkasi bo‘lgan Tadqiqot va tahlil bo‘limi (Research and Analysis Wing, RAW) Afg‘oniston Milliy xavfsizlik boshqarmasi (National Directorate of Security, NDS) razvedka xizmati bilan hamkorlikda Pokistonga qarshi chegara hududlarda turli amaliyotlarni amalga oshirib keladi. Masalan, taniqli ekspert Muso Xon Jalolzoy Afg‘onistonning razvedka o‘yinlariga bag‘ishlangan kitobida RAW va NDS razvedkalarining Pokistonga qarshi Balujistondagi turli amaliyotlari, ularning Balujiston separatistik yetakchilari bilan bu boradagi yaqin hamkorligi, shuningdek, RAW Amerikaning CIA va Isroiilning Mossad razvedkalari taktik ko‘magi bilan Pokiston chegara hududlarida anti-Pokiston joususlik tarmog‘ini yaratgani haqida muhim materiallarni taqdim etadi[5]. Shuningdek, hind armiyasi generali Ajay Chandpurianing (Major General Ajay Chanduria) ma’lum qilishicha, Afg‘onistonda Amerikadan qolgan harbiy aslahalar Kashmirda topilgan va ushbu quollar terrorchilar tomonidan foydalanishi mo‘ljallangan. Chanduria ushbu quollar Kashmirda Pokiston orqali olib o‘tilishi, taxminan 150dan 200 nafarga yaqin terrorchilar Kashmirda faollashayotgani hamda ularning 40-45 %i Afg‘onistonda jang tajribasiga ega bo‘lgan pokistonlik ekanligini ta’kidlaydi[8]. Tabiiyki, bunday omillar Hindistonning Dyurand chizig‘i bo‘yicha pozitsiyasini amaliyotga joriy etishga undab keladi.

Xitoy Xalq Respublikasi. Rasmiy Pekin Afg‘onistonning qayta radikal guruhlar va ularning ittifoqchilari uchun boshipana bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymoqchi emas. Bu yondashuv, ayniqsa, Xitoyning g‘arbidagi Shinjon-uyg‘ur avtonom viloyati mustaqilligiga intilayotgan Sharqiy Turkiston Islomiy Harakatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita yordam beradigan har qanday harakatning oldini olishga qaratilgandir[9]. Bu harakatning asosiy faoliyat obyekti aynan Afg‘oniston va Pokiston chegarasi bo‘lib qolmoqda. Pekin “Dyurand chizig‘i” masalasida Pokiston yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Zeroki, bu Xitoyning ichki va tashqi siyosatdagi hududiy yaxlitlik tamoyiliga har jihatdan muvofiq keladi. O‘z navbatida, Xitoy “Bir belbog‘, bir yo‘l” loyihasining uzviy qismi hisoblangan “Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori”ga katta sarmoyalalar ajratgan. Ushbu yo‘lakning aynan Afg‘oniston va Pokiston chegarasiga tutush

hududlardan o‘tishi uchun ham Pekin “Dyurand chizig‘i” masalasida xavfsizlik kafolatli bo‘lishini, bu yerda turli separatistik guruhlarga qarshi kurashish lozimligini ta’kidlab keladi.

Tabiiyki, yuqoridagi kuch markazlari Dyurand chizig‘i atrofida geosiyosiy manfaatlar va xavfsizlik nuqtayi nazaridan e’tibor qaratishadi. Qayd etish lozimki, bu hududda har qaysi kuch o‘z manfaatlarini amalga oshirishga intiladi. Bu esa muammoni yanada chigallashtiradi. Afg‘oniston-Pokiston o‘rtasidagi asosiy muammoni hal etish uchun mahalliy va xorijiy olimlar, siyosatchilar hamda ekspertlar tomonidan bir qator takliflar ilgari surilgan. Jumladan, rossiyalik siyosatshunos D.Verxoturovning fikriga ko‘ra, mintaqadagi beqarorlikdagi bosh muammo pashtunlar milliy davlatchiligi belgilanishining tugatilmaganligidir. Bu Britaniya siyosatining natijasi hisoblanadi. Bu muammoni yechishning uchta usulini qo‘llash mumkin:

- Birinchi usul - Afg‘onistonni to‘liq pashtun davlatiga aylantirish;
- Ikkinci usul - Dyurand chizig‘i atrofida Afg‘oniston-Pokiston konfederatsiyasini yaratish;
- Uchinchi usul esa Afg‘oniston-Pokiston chegarasidagi “Erkin zona”da “Pashtuniston” rahbarlarini amalda sinab ko‘rish.

Holbuki, muammoni yechishning mazkur usullari Afg‘oniston va Pokistonni ancha zaiflashtiradi va davlat hududining ma’lum bir qismining qo‘ldan chiqishiga olib keladi[10].

Boston universiteti professori Husayn Haqqoni o‘z maqolasida “Afg‘oniston va Pokiston davlatlari chegaradagi keskinlikni bartaraf etishi va “Katta o‘yin”dan qolgan fitna va zo‘ravonlik o‘rniga ochiq, diplomatik munosabatlar o‘rnatishi kerak. AQSh vositachiligidida Pokiston va Afg‘oniston o‘rtasida Dyurand chizig‘i bo‘yicha yashirin kelishmovchilikni tugatish bo‘yicha kelishuv va Pokistonning Afg‘oniston ichki ishlariga aralashuvini to‘xtatish bo‘yicha xalqaro kafolatlar ikki musulmon davlati o‘rtasidagi mustahkam tinchlik va do‘stlik uchun asos bo‘lishi mumkin”, deb taklif beradi[11].

Ba’zi ekspertlar “Pashtun” muammosini yechishning quyidagi ikki usulini ko‘rsatib o‘tadilar:

- Birinchisi, Dyurand chizig‘ida ikki pashtun avtonomiyasini tuzish;
- Ikkinchisi, Dyurand chizig‘ini yo‘qotish, pashtun xalqini birlashtirish va hozirgi Afg‘oniston-Pokiston chegarasida yangi mustaqil Afg‘oniston davlatini yaratish[10].

Shuningdek, mutaxassislarning tahliliga ko‘ra, xalqaro hamjamiyat hozirgi Pokiston-Afg‘oniston chegarasini qayta ko‘rib chiqish va yarashuv jarayonlarini osonlashtirish lozim, aks holda mintqa yanada olovli nuqtaga aylanib ketish xavfiga duch keladi. Afg‘oniston-Pokiston chegarasi duch kelayotgan son-sanoqsiz jiddiy muammolar Islomobod va Kobul uchun o‘tmishdagi keskin mojarolarning garovi bo‘lib qolmasdan, o‘zaro munosabatlarni tiklash va bu muammolarni birgalikda hal qilish vaqtি kelgani uchun tashvishli tahdid sifatida ko‘rinadi. Dyurand chizig‘i kabi bahsli chegaralar uchun yechim qarama-qarshilik siyosatini

davom ettirishda emas, balki hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi strategiyalarda yotadi. Ikki davlat mintaqaning tinch va farovon kelajagini ta'minlash bo'yicha yo'riqnomalarini ishlab chiqishlari, chegarada harakat qilayotgan nodavlat va davlat subyektlariga qarshi kurashishda hamkorlik qilishlari va keng qamrovli kelishuvga erishish uchun mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishni maqsad qilishlari kerak[12].

O'z navbatida, ikki davlat chegara muammosini xalqaro huquqiy yo'llar bilan hal etish ham dolzarb o'rin egallaydi. Xususan, Xelsinki kelishuvlari Janubiy Osiyodagi muammoli "Pashtuniston" va Kashmir muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. Mintaqani o'r ganuvchi olimlarning aksariyati Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi Dyurand chizig'ida xalqaro qonuniylikni ta'minlash ushbu chegara mojarosini hal qilishning yagona ehtimoliy yechimi, deb hisoblashadi. Xelsinki xalqaro konferensiyasi Pokiston va Afg'oniston rahbarlariga ikki tomonlama chegaraviy muzokaralarni boshlash uchun turtki berishi va bu jarayonlarda Xalqaro Gaaga sudi tomonlarga yakuniy yechimga erishish uchun ko'maklashishi mumkin[13].

Mahalliy afg'onshunos olim S.Bo'ronov o'z maqolasida "Dyurand chizig'i" muammosi va uni hal etish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surgan: "Shak-shubhasiz, "Dyurand chizig'i" afg'on muammosining ildizi va uni hal etishning kalitidir. "Dyurand chizig'i" mustamlakachi rejim va "Katta o'yin"ning salbiy natijasidir. Bu tarixiy xato va Afg'oniston va Pokiston chegarasidagi hozirgi mojarolarga bevosita mas'ul bo'lgan eng qudratli davlatlarning o'zaro kelishuvi va hamkorligi asosida hal qilinishi kerak. Bu muammoni "Solomoncha yo'l" [14] bilan hal qilish vaqtি keldi va kelajakda bu mintaqaning barcha davlatlariga foyda keltiradi. Agar BMT tomonidan "SCAP" ishchi guruhi (ya'ni Xavfsizlik Kengashi + Afg'oniston va Pokiston so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan) tashkil etilsa, afg'on muammosining muqobil yechimi sifatida samaraliroq bo'lar edi. Bu tashabbusning mazmun-mohiyati shundan iboratki, BMT Xavfsizlik Kengashining besh doimiy a'zosi, shuningdek, Afg'oniston va Pokiston hukumatlari chegara masalalarini siyosiy muzokaralar yo'li bilan hal qilishlari kerak. Bizning fikrimizcha, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "SCAP" ishchi guruhi quyidagilarga e'tibor qaratishi kerak: "Dyurand chizig'i"ni xalqaro huquq asosida hal qilish; FATA va Shimoli-G'arbiy chegara viloyati (NWFP)ning huquqiy maqomini aniqlash; Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegara masalalari bo'yicha rezolyutsiyasini qabul qilish lozim" [15].

XULOSA

Dyuraand chizig'i nafaqat Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi muammo, balki tashqi kuchlar uchun mintaqada beqarorlik keltirib chiqaruvchi vosita ham hisoblanadi. Bu esa Janubiy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga tahdid tug'diruvchi bir qator sabablarni keltirib chiqaradi. "Tolibon" rahbarligidagi Afg'oniston Muvaqqat hukumati ham Pokiston bilan ushbu masalani hal

etish jarayonlarida yagona to‘xtamga kelisha olmayapti. Buning asosiy sababi ushbu chiziq atrofida yashaydigan pashtunlarning ijtimoiy va siyosiy qarashlari bilan bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. US Position Hasn’t Changed on Durand Line: Burns. (May 13, 2013) Outlook Afghanistan. Retrieved from http://outlookafghanistan.net/national_detail.php?post_id=7337
2. Фененко А.В. (2013) Проблематика «АфПак» в мировой политике. Вестн. Моск. ун-та. Сер. 25. Международные отношения и мировая политика. № 2. <https://cyberleninka.ru/article/n/problematika-afpak-v-mirovoy-politike>
3. Ralf P. (June 1st, 2006) Blood borders: How a better Middle East would look. Retrieved from <http://armedforcesjournal.com/blood-borders>
4. Nazarova F. (2021) Yaqin Sharqdagi milliy-etnik munosabatlarda kurdлarni o‘rni. Toshkent. – B.66-67.
5. Бўронов С.М. (2021) Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. Монография. – Т.: EFFECT-D. – 204 б.
6. Dr. Nalin Kumar Mohapatra. (Feb 26, 2021) The geopolitics of Durand Line and the question of Pakistan-Occupied-Pashtunistan. The Economic Times. Retrieved from https://economictimes.indiatimes.com/news/defence/the-geopolitics-of-durand-line-and-the-question-of-pakistan-occupied-pashtunistan/articleshow/81228970.cms?utm_source=contentofinterest&utm_medium=text&utm_campaign=cppst
7. Nirmala J. (25 марта 2013 й) Indian perspectives on regional approach to Afghanistan // Буюк ипак йўлининг ўтмиши ва ҳозирги куни: ривожланишнинг ижтимоий-маданий, тарихий, сиёсий ва иқтисодий йўналишлари: халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТошДШИ. – Р. 265.
8. Akmalov S. (2022). A Vision of India’s Afghan Policy: Challenges and Strategic Choices. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(5), 322-328.
9. Nadiri Kh.H. (April 27, 2015) Explaining Pakistan’s self-defeating Afghanistan policy. Brookings. Retrieved from <https://www.brookings.edu/blog/markaz/> 2015/04/27/explaining-pakistans-self-defeating-afghanistan-policy/
10. Abdurahmonov O. (2021) Afg‘oniston pushtunlari. Ilmiy risola. – Т.: EFFECT-D. – 101 b.
11. Haqqani H. (March 15, 2006) The Wind Blows Another Way at The Durand Line. Carnegie Endowment for International Peace. Retrieved from <https://carnegieendowment.org/2006/03/15/wind-blows-another-way-at-durand-line-pub-18267>

12. The Durand Line - A razor's edge between Afghanistan & Pakistan. European Foundation for South Asian Studies. Retrieved from <https://www.efsas.org/publications/study-papers/the-durand-line-a-razors-edge-between-afghanistan-and-pakistan/>
13. Tomsen P. (2002) Post-Taliban Afghanistan and Regional Co-Operation in Central Asia. Retrieved from <http://sam.gov.tr/pdf/perceptions/Volume-VII/march-may-2002/Peter-Tomsen.pdf>
14. Сафоев Ж. (2016) Қанотли сўзлар: Ким томонидан, қачон ва нима муносабат билан айтилган? – Т.: Шарқ. – Б.169-170.
15. Suhrob, B. (2020). The durand line-key of the afghan problem. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(2), 1315-1318.